**125-masala.** Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan o'nli sonni ikkilikga almashtiruvchi dastur tuzing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

### O'nli sonni ikkilikga almashtirish

0 dan 255 gacha butun sonni kriting va <Enter> tugmasini bosing -

49

49 o'nli songa ikkilik **00110001** soni mos keladi.

Dastur ishini tugallash uchun <Enter> tugmasini bosing.

## **REPEAT operatori.**

Ushbu bo‘limdagi masalalarni yechishda quyidagilarni eslatamiz:

- **REPEAT** operatoridagi takrorlash soni dastur bajarilish jarayonini aniqlaydi;

- **REPEAT** operatoridagi sikl Until so‘zidan navbatdagi shart yolg‘on bo‘lgunga qada bajariladi;

- **REPEAT** siklini tugallash uchun sikl tanasida siklni tugallash shartiga ta’sir etish bajariladigan ko‘rsatma bo‘lishi shart;

- **REPEAT** sikl doimiy shartdagi sikl hisoblanib, sikl tanasi ko‘rsatmasi hech bo‘lmaganda bir marta bajariladi;

- **REPEAT** sikl qoida bo‘yicha ma’lumotlarni klaviatura yoki foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan hibashlarni tashkil etish, izlash masalalari va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun qo’llaniladi.

**126-masala.** Klaviaturadan kiritiladigan musbat ketma-ket sonlarning yig‘indisi va o‘rta arifmetik qiymatini hisoblash dasturini tuzing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsija etiladigan ekran ko‘rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

**Musbat ketma-ket sonlarning o‘rta arifmetigini hisoblash.**

Strelkadan so‘ng sonni kriting va kiritish jarayonini tugallash uchun nol sonini kriting - 45

-	23
-	15
-	0

3 ta son kiritildi.

Sonlar yig‘indisi: 83

O‘rta arifmetigi: 27.67

**127-masala.** Klaviaturadan kiritilgan musbat ketma-ket sonlarning maksimal qiymatini aniqlovchi dastur tuzing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsija etiladigan ekran ko‘rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

**Mushat ketma-ket sonlarning maksimal qiymatini hisoblash.**

Strelkadan so‘ng sonni kriting va kiritish arayonini tugallash uchun nol sonini kriting - 56

-	75
-	43
-	0

**Maksimal son:** 75.

**128-masala.** Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan butun son tub ekanligini tekshiruvchi dastur tuzing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida

tavsiya etiladigan ekran ko‘rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

Butun son kriting va <Enter> tugmasini bosing - 45

45 – soni tub son emas.

**129-masala.** Integralni taqribi hisoblashni trapetsiya usuli bilan hisoblash dasturini tuzing. Har bir sikldan so‘ng dastur hisoblangan qiymatni, uning soni va oraliq kattaligini chiqarsin.

**130-masala.** 1 dan 10 gacha oraliqdagi sonni “o‘yaydigan” va foydalanuvchi tomonidan 5 marotaba harakatda topishni taklif etuvchi dastur tuzing.

“Sonni toping” o‘yini.

Kompyuter “! dan 10 gacha bo‘lgan sonni o‘yaydi”

5 ta harakatda uni toping.

Sonni kriting va <Enter> tugmasini bosing - 5

Yo‘q

→3

Siz yotdingiz! Tabriklayman!

### WHILE operatori

Usibu bo‘lim masalalarini yechishda quyidagiarni eslatamiz:

- WHILE operatorining takrorlash soni dasturning bajarilishi jarayonida aniqlanadi;

- WHILE operatori toki WHILE so‘zidan navbatdagi shart “rossi” bo‘lgan holda bajariladi;

- WHILE so‘zidan so‘ng sikl ko‘rsatmasining bajarilish sharti yoziladi:

- WHILE siklini tugallash uchun sikl tanasida sikl ko‘rsatmasining bajarilish shartiga ta’sir etuvchi ko‘rsatma qatnashishi shart.

- WHILE sikli – bu shartdan oldingi sikl, ya’ni sikl tanasidagi ko‘rsatma umuman bajarilmasiligi ham mungkin;

- WHILE sikli qoida bo‘yicha taqribi hisoblashni tashkil etish, izlash masalalari va ma’lumotlarni qayta ishlashda klaviatura yoki foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlar uchun qo’llaniladi.

**131-masala.** Foydalanuvchi tomonidan berilgan aniqlikda hisoblovchi dastur tuzing. Buning uchun  $1-1/3+1/5-1/7+1/9-\dots$  qatorning hususiy yig‘indisi qiymatini hisoblashda katta miqdordagi hadlar yig‘indisi  $\frac{11}{4}$  ga yaqin bo‘ladi. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko‘rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

11 ning hisoblash aniqligini kriting – 0.001  
11 sonining qiymati 0.001000 aniqlandi 3.143589 ga teng.  
502 ta qator hadlar yig‘indisi olingan.

**132-masala.** 2 ta butun sonning eng katta umumiy bo‘lувчисини hisoblash dasturini yozing.

### Belgilar va satrlar

Ushbu bo‘lim masalalarini yechishda quyidagilarni eslatamiz:

- har bir belgiga son-belgi kodi mos keladi;
- satrning alohida belgisiga o‘zgaruvchi nomidan keyin kvadrat qavs ichida uning nomerini ko‘rsatishi huquqi olinadi.

**133-masala.** Foydalanuvchi ismini so‘rovchi va u bilan so‘rashuvchi dastur tuzing.

### Ismingiz kim?

O‘z ismingizni kriting va <Enter> tugmasini bosing – Nizom.

**Salom , Nizom!**

**134-masala.** Ekranda “telegraf” stilidagi xabarni chiqaruvchi dastur yozing, ya’ni xabar harfi bittadan paydo bo‘lishi, ma’llum vaqt ushlangan holda bo‘lishi lozim.

**135-masala.** Satrnji klaviaturadan kiritilganda boshlang‘ich bo‘shliqni o‘chiruvchi dastur yozing.

**136-masala.** Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan belgi kodini chiqaruvchi dastur yozing. Dastur **nuqtga** kiritilganča so‘ng ishini tugallashi lozim. Quyidagi dastuming ishlash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko‘rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’llumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

Belgini kriting va <Enter> tugmasini bosing – 1

Belgi : 1 , Kod : 49

→ 2

Belgi : 2 , Kod : 50

→ 61

Belgi : o‘ , Kod : 235.

→ .

**137-masala.** Belgilar kodlanishining dastlabki jadval qismini ekranga chiqarish dasturini yozing( 0 dan 127 gacha son kodlariga ega belgilar). Jadval 8 ta ustun va 16 ta satrdan iborat jadvalni rashkil etadi. Birinchi ustunda 0 dan 15 gacha koddagi belgilar, 2-ustunda 16 dan 31 gacha koddagi belgilar va hokazo.

**138-masala.** Klaviaturadan kiritilan satrda lotin yozuvidagi kichik harflarni bosh harflariga almashtirish dasturini yozing.

**Matn satrini kriting va <Enter> tugmasini bosing - Paskal tilini o'rganib, C tilini o'rganish mumkin.**

**Yuqori registrga almashgan satr.**

**PASCAL TILINI O'RGANIB, C TILINI O'RGANISH MUMKIN.**

**139-masala.** Klaviaturadan kiritilgan satr ikkilik son ekanligini tekshirish dasturini yozing.

**140-masala.** Klaviaturadan kiritilgan satr o'n otilik son ekanligini tekshirish dasturini tuzing.

**141-masala.** Klaviaturadan kiritilgan satr butun son ekanligini tekshiruvchi dastur yozing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya ctiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

Sonni kriting va <Enter> tugmasini bosing – 23.5

Kiritilgan satr butun **son** emas.

**142-masala.** Klaviaturadan kiritilgan satr kasr son ekanligini tekshiruvchi dastur tuzing.

**143 – masala.** Klaviaturadan kiritilgan sakkiz birlikdagi ikkilik sonni o'nlikga almashtiruvchi dastur tuzing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya ctiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

Sakkizbirlikdagi ikkilik son kriting va <Enter> tugmasini bosing – 11101010.

Ikkilik son **11101010** ga o'nlik **234** soni mos keladi.

Dastur ishini tugallash uchun <Enter> tugmasini osing.

**144-masala.** Klaviaturadan kiritilgan ikki birlikdagi 16 lik sonni 10 likga almashtiruvchi dastur tuzing.

**149-masala.** Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan o'nlik sonni ko'rsatilgan sanoq tizimiga almashtirish dasturini tuzing.(2 dan 10 gacha). Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

Butun sonni kriting – 67

Sanoq tizimi asosini kriting - 2

100011

**150-masala.** Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan o'nlik sonni 16 likga almashtiring.

**151-masala.**  $N_0O_1N_2O_2\dots O_kN_k$ , bu yerda  $N_i$  – bir birlikdagi butun son  $O_i$  – sodda arifmetik amallardan biri qo'shish yoki ayirish. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya ctiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi

(foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

### Arifmetik amallarni kriting

Masalan:  $4+5-3-5+2$  va <Enter> tugmasini bosing  
 $\rightarrow 9-5+4+2-6$

### Kiritilgan ifoda qiymati: 4

Dastur ishini tugallash uchun <Enter> tugmasini bosing.

### Massivlar.

Ushbu bo'limning masalalarini yecishda quyidagilarni eslatamiz:

- Massiv - bir xil turdag'i elementlar to'plamidan tashkil topgan ma'lumotlar strukturasi;
- Massiv o'zgaruvchilarni e'lon qilish bo'limida keltiriladi;
- Massiv e'lon qilishda nomlangan konstantadan foydalanish qulay;
- Massiv elementidan oydanish huquqi element indeksi(nomeri)ni ko'rsatish orqali amalga oshiriladi, indeksda butun turdag'i ifodadan foydalaniлади. Masalan, butun o'zgarmas(konstanta) yoki Integer turdag'i o'zgaruvchi;
- Massivlarni kiritish, chiqarish va qayta ishlashda siki ko'rsatmalaridan foydalanish qulay (for, while, repeat).

**152-masala.** Klaviaturadan 5 ta butun sondan iberat bir o'lchanli massivni kirituvchi va nol bo'lmagan elementlar sonini chiqaruvchi dastur yozing. Har bir element kiritilgandan so'ng, ekranada uning nomeri ko'rsatisin.

Har bir element kiritilgandan so'ng <Enter> tugmasini bosing

a[1] → 12  
a[2] → 0  
a[3] → 3  
a[4] → -1  
a[5] → 0

Massivda 3 ta nol bo'lmagan elementlar.

**153-masala.** Klaviaturadan kiritilgan butun sonii massivning minimal elementini chiqaruvchi dastur yozing. Quyidagi dasturaning ishlash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

Massivning minimal elementini izlash

Bitta satrda massiv elementlarini kriting (5 ta butun son) va <Enter> tugmasini bosing.

$\rightarrow 23 \ 0 \ 45 \ -5 \ 12$

## **Massivning minimal elementi: → -5**

**154-masala.** Klaviyaturadan kiritilgan butun sonli massivning nol bo'limagan elementlari o'rta arifmetik qiymatini hisoblash dasturini yozing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsija etiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

Bitta satrda massiv elementlarini kiriting(10 ta butun son) va  
 <ENTER> tugmasini bosing>

→ 23 0 45 -5 12 0 -2 30 0 64

Massiv elementlari yig'indisi: 184

Nol bo'limagan elementlar miqdori: 7

**155-masala.** Hafitalik havo temperaturasining o'rtacha qiymatini hisoblash dasturini yozing. Berilgan ma'lumotla dasturning ishlash paytida kiritiladi.

### **Hafta ichdagi havo tempereturasini kiriting**

Dushanba	→ 12
Sshanba	→ 10
Chorshanba	→ 16
Payshanba	→ 18
Juma	→ 17
Shanba	→ 16
Yakshanba	→ 14

**156-masala.** Klaviyaturadan kiritilgan sonning massivda mavjud ekanligini tekshiruvchi dastur yozing. Massiv dasturning ishlash paytida kiritilishi lozimi.

**157-masala.** Klaviyaturadan kiritilgan massiv elementlarining o'suvchi ketma-ketligini tekshiruvchi dastur yozing.

**158-masala.** Klaviyaturadan kiritilgan massiv elementlarining kamayuvchi ketma-ketligini tekshiruvchi dastur yozing

**159-masala.** Klaviyaturadan kiritilgan son massivda necha marotaba uchrashini aniqlovchi dastur yozing.

**160-masala.** Klaviyaturadan kiritilgan massiv elementlari ichida bir xil qiymatlilar mayjudligini tekshiruvchi dastur tuzing.

## **SHAKL YASOVCHI VA FAYLLAR BILAN ISHLASH OPERATORLARI**

### **Shakl yasovchi operatorlar**

Ushbu bo'limdagи masalalarni yechishda quyidagilarni eslatamiz:

- ekranning grafikli rejimi har biri 16 rangdan biri bilan bo'yalgan nuqtalar to'plamidan iborat;

- nuqta koordinatalari chapdan o'nga va yuqorida pastga o'sadi; chap yuqori nuqta (0,0) koordinataga ega, o'ng past koordinata – (639,479) ga teng;

- dastur ekranga grafikli tasvirlarni chiqarishi uchun(chiziq, aylana, to'g'ri to'rtburchak) grafikli rejimni o'rnatish lozim.

Grafikli dastur andozasi quyidagicha tasvirlanadi:

**USES Graph;**

**VAR**

**gr Driver: Integer;**

**gr Mode: Integer;**

**Err Code: Integer;**

**Res: Integer;**

**Begin**

**gr Driver: q detect;**

**Init Graph(gr Driver, gr Mode, 'c : tp/ bgi');**

**Err Code: q Graph Result:**

**If Err Codeeq gr Ok then**

**Begin**

{ bu yerga asesiy ko'rsatmalari


**joylashtiriladi}**

**end;**


**Close Graph;**

**End.**


**161-masala.** Ekranda "uy" rasmini chizuvchi dastur yozing.




**162-masala.** Ekranda olimpiada o'yinlari bayrog'ini chiqaruvchi dastur tuzing. Bayroq tasvirini quyidagicha keltirilgan.




**163-masala.** Ekranda **kema** rasmini chizish dasturini yozing.



**164-masala.** Ekranda **raketa** rasmini chizish dasturini tuzing.




**165-masala.** Bazali nuqta usulidan foydalanib, ekranda **kema** tasvirini chizish dasturini tuzing.



**167-masala.** Tasodifiy diametr va rangli 100 ta aylanadan iborat naqshni ekranda chizuvchi dastur yozing.

**168-masala.** 200 ta qismdan iborat, turli ranglarga bo'yalgan ixtiyoriy shaklda tanlanuvchi qism koordinatalari ham tasodifiy tanlanadigan ekranda siniq chiziq chizish dasturini tuzing.

**169-masala.** Beshyulduzli konturni ekranda chiqaruvchi dastur tuzing.



**170-masala.** Beshyulduzni ekranda chiqaruvchi dastur tuzing.

**171-masala.** Ekranda oltiburchakni chizuvchi dastur tuzing.

**172-masala.** Ekranda **O'zbekiston bayrig'i** rasmini chiqarish dasterini tuzing.


**173-masala.** Tabassumli sariq rangdagi odam yuzini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.




**174-masala.** G'amgin yuzni chiqaruvchi dastur tuzing.




**175-masala.** Quyida tasvirlangan naqshni ekarnga chiqaruvchi dastur tuzing.




**176-masala.** Quyida tasvirlangan naqshni ekarnga chiqaruvchi dastur tuzing. Aylanalar turli rangda bo'lishi mumkin.



**177-masala.** Quyida tasvirlangan naqshni ekranda chiqaruvchi dastur tuzing.




**178-masala.** Quyida tasvirlangan naqshni ekranda chiqaruvchi dastur tuzing.




**179-masala.** Shahmat taxtasi tasvirlangan tasvirni ekranda chiqaruvchi dastur tuzing.


**180-masala.** Qizil rangli bayroqchani ekranda chiqaruvchi dastur tuzing.



**181-masala.** Bazali nuqtalar usulidan soydalanib, ekranda poyezd rasmini chizish dasturini yozing.



**182-masala.** Ekranda avtomobilni chizish dasturini tuzing. Avtomobil g'ildiragini chizishni ta'minlash ko'rsatmasini protsedura shaklida jihozlang.




**183-masala.** Raqamlangan koordinatali to'omi ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

5.0							
4.0							
3.0							
2.0							
1.0							
0.0							
0.00	0.5	1.0	1.5	2.0	2.5	3.0	3.5

**184-masala.**  $Y=0.5x^2 + 4x - 3$  funksiyaning nuqtali grafigini ekranda chiqaruvchi dastur tuzing. Argumentning o'zgarish oraligi  $-15$  dan  $5$  gacha  $0.1$  qadam bilan o'zgaradi. Gariflik koordinatalar o'qi fonida chiqariladi, kesilish nuqtasi ekran markazida joylashadi.

**185-masala.** Ekranda kema rasmini chizuvchi dastur tuzing. Proseduraning parametrlari sifatida bazali nuqta va rang olinadi. Ushbu proseduradan foydalanib, ekranda harakatlanuvchi keman ni ekranda chiqaruvchi dastur tuzing.



**186-masala.** Ekranda harkatlanuvchi aylanani chizuvchi dastur tuzing.

**187-masala.** Ekranda sinf o'quvchilarining nazorat ishlari yakuniy bo'yicha o'zlashtirishni tasvirlovchi histogrammani chiqaruvchi dastur tuzing. Berilgan ma'lumotlar alfavitli-raqami ish rejimida kiritiladi. Ekrani ko'rinishi quyidagicha keltirilgan. Birinchi rasmida ekran berilgan ma'lumotlarni kiritish paytida ko'rsatilgan, ikkinchi rasmida ekraunda diagramma shakli keltirilgan.

Nazorat ishlari natijalarini qayta ishlash.

Berilgan ma'lumotlarni kiritning:


Besh - 10

To'rt - 15


Uch - 7

Illi - 1


Nazorat ishi natijalari.



**188-masala.** Kitob do'konining mahsulotlar sotilishi aylanishini tasvirlovchi doiraviy diagrammani ekranda chiqaruvchi dastur tuzing. Berilgan ma'lumotlar(sotish hajmi kategoriya bo'yicha: kitoblar, jurnallar, otkritkalar va konstovarlar(so'm)) dastur bilan ishlash vaqtida kiritiladi.



**189-masala.** Ekranda svetoforming ishlashini tasvirlovchi dastur yozing. Svetoforming ko'rinishi va uning ishlash algoritmi quydagicha keltirilgan.



### Fayllar bilan ishlash operatorlari

Ushbu bo'limning masalalarini yechishda quydagilarni eslatamiz:

- natijalarni faylga chiqarish yoki berilgan ma'lumotlarni fayldan o'qish dasturda faylli o'zgaruvchi **TEXT** turi bilan e'lon qilinadi;
- aniq fayl bilan ishlash huquqi uchun faylli o'zgaruvchi ushbu fayl bilan bog'lanishi lozim(bu **assign** operatori yordamida bajariladi),

- fayl bilan ishlash huquqiga ega bo'lish uchun uni ochish lozim(o'qish uchun **reset**,yozish uchun **rewrite**, qo'shish uchun **append** operatorlari yordamida bajariladi);

- fayl bilan ishslashda xatoga yo'l qo'yiladi, **masalan**, dastur mavjud bo'lmagan saylni ochishga harakat qiladi, shuning uchun xatolikga olib keluvchi har bir ko'rsatmadan so'ng **IO RESULT** funksiyadan foydalanib, fayl bilan amalni tugallash kodini tekshiradi. Dastur fayl bilan amal bajarish natijasini nazorat qilish uchun uning matniga{si -} buyrug'ini joylashtirish lozim;

- fayl bilan ishni tugallish uchun uni Close operatori bilan yopish shart;

- saylli o'zgaruvchi turi **TEXT** operatori bilan e'lon qilingan dastur tomonidan yaratilgan faylni matn tahrirlovchisi yordamida ko'rish mumkin;

- faylga yozishni **WRITE** va **WRITELN**, o'qish uchun **READ** va **READLN** operatorlari bajariladi.Birinchi parametr silatida faylli o'zgaruvchilar ko'rsatiladi.

**190-masala.** Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan butun sonlarni a:\numbers.txt faylga qo'shib yozuvchi dastur yozing.

**191-masala.** Almashinuvchi disk A: da numbers.txt saylini yaratuvchi va unga foydalanuvchi tomonidan kiritilgan but sonlarni yozishni tashkil etuvchi dastur tuzing.

**192-masala.** a:\numbers.txt fayl mazmunini ekranga chiqaruvchi dastur yozing.

**193-masala.** a:\numbers.txt faylda joylashgan sonlarning o'rta arifmetik qiymatimatinisini hisoblash dasturini yozing.

**194-masala.** Matnli faylni ko'rsatish imkoniyatini beruvchi dastur tuzing. (ekranga fayl mazmunini chiqaring) Masalan, Turb Pascal dasturining berilgan sayllari ko'rilib yozilgan fayl nomi dasturning ishlash vaqtida kiritiladi. Ekran ko'rinishi quyida keltirilgan:

#### **Matni faylni ko'rish**

Faylning to'liq nomini kriting va <Enter> tugmasini bosing → C:\tp\pas\mub.pas

**195-masala.** A diskda joylashgan phone.txt fayliga quyidagi ma'lumotlar: **familiyasi** va **telefon nomeri**(masalan,do'stingiz yoki dugonangizniki) ni yozish dasturini yozing. Agar fayl diskda mavjud bo'limasa,dasturunu yaratishi lozim. Faylda har bir ma'lumotlar elementi (**nomi,familiyasi, telefon nomeri**) alohida satrda joylashishi lozim. Ekran ko'rinishi quyidagicha keltirilgan:

**Telefon lug'atiga qo'shish**

Familiya → Ahmedov

Ismi → Alijon  
Telefon → 66-35-48  
Axborot qo'shildi.

Ishni tugallash uchun <ENTER> tugmasini bosing

**196-masala.** Bitta seans ish davomida A:\phone.txt fayliga bir nechta odamlar haqida axborotni qo'shish dasturini yozing.

**197-masala.** Telefon lug'at (A:\phone.txt) haqida kerakli ma'lumotni topish imkoniyatini topuvchi dastur yozing. Dastur odamning familiyasini so'rash va uning telefon nomerini chiqarishi lozim. Agar lug'atda bir xil familiya mavjud bo'lsa, u holda dastur bunday familiyaga ega barcha o'camlarning ro'yxatini chiqarsin. Ekran ko'rinishi quyidagicha keltirilgan:

#### Telefon lug'atda izlash

Familiyasini kiriting va <ENTER> tugmasini bosing  
Dastur bilan ishni tugallash uchun taklif belgisi chiqishi bilan  
<ENTER> iugmasini bosing → Bahodirov  
Lug'atda **Bahodirov** haqida ma'lumotlar kiritilmagan.

→Valijanov

Valijanov	Asqar	66-33-57
Valijanov	Botir	66-43-87

**198-masala.** "Telefon lug'atga qo'shish" va "Telefon lug'atda izlash" dasturlarini birlashtirish imkoniyatini beruvchi dastur yozing.

## QISM DASTURLAR

### Funksiyalar

Ushbu bo'lim masalalarini yechishda quyidagi larni eslatamiz:

- funksiyaga ma'lumotlarni uzayish uchun faqat parametrlardan foydalaniladi (Global o'zgaruvchilar, ya'ni o'zgaruvchilarni funksiyadan tashqarida e'lon qilish tavsya etilmaydi);
- funksiyaning bajariladigan ko'rsatmalari orasida funksiya qiymatini o'zlashtirish ko'rsatmasi bo'lishi shart;
- funksiyani chaqirish ko'rsatmasidagi har bir faktli parametr turi (konstanta yoki o'zgaruvchi) funksiyani e'lon qilingandagi ko'rsatilgan formal parametrga mos kelishi lozim;
- agar funksiyani e'lon qilish ko'rsatmasida formal parametr oldida **VAR** so'zi mavjud bo'lmasa, funksiyani chaqirishda formal parametr sifatida mos turdag'i konstanta yoki o'zgaruvchidan foydalanish mumkin. Agar **VAR** so'zi ko'rsatilsa, formal parametr faqat o'zgaruvchi bo'ladi;

- agar funksiya parametri funksiyani chaqiruvchi dastur natijalarini qaytarish uchun foydalanilsa, u holda funksiyani e'lon qilishda parametrga mos nom oldida **VAR** so'zi qatnashishi lozim.

**199-masala.** Silindr hajmini hisoblash funksiyasini yozing. Funksiya parametrлari silindr radiusi va balandligi bo'lishi lozim.

**200-masala.** 2 ta butun sondan argument sifatida hosil qiluvchi maksimal qiymatini qaytaruvchi funksiya yozing.

**201-masala.** 2 ta butun sonni taqqoslovchi va taqqoslash natijalarini quyidagi belgilardan biri ko'rinishda qaytaruvchi funksiyani yozing.  $>$ ,  $<$  yoki  $=$ .

**202-masala.**  $a^b$  qiymatni hisoblash funksiyasini yozing.  $a$  va  $b$  sonlar ixtiyorli musbat kasr sonlar bo'lishi mumkin.

**203-masala.** 2 ta rezistorlardan iborat zanjir qarshiligini hisoblash funksiyasini yozing. Funksiya parametrлari sifatida qarshilik kattaligi va birlashtirish turi olinadi (ketma-ket yoki parallel). Funksiya parametrлari to'g'riligini tekshirish lozim: agar birlashtirish turi noto'g'ri ko'rsatilsa, funksiya – 1 ni qaytarishi kerak.

**204-masala.** Argument sifatida hosil qilinadigan sondan foizni qaytaruvchi **Procent** funksiyasini yozing.

**205-masala.** Jamg'arma bo'yicha foydani hiseblovchi **Foya** funksiyasini yozing. Funksiya uchun berilgan ma'lumotlar: **jamg'arma miqdori**, yillik foiz va **jamg'arma muddati**(sana soni).

**206-masala.** Agar argument sifatida olingan belgi o'zbek alifbosining unli harfi hisoblansa, **TRUE** qiymatini qaytaruvchi **UNLI** funksiyasini yozing.

**207-masala.** Satrdan boshlang'ich bo'shlinqi o'chirishni hosil qilishni argument sifatida qabul qiluvchi funksiyani yozing.

**208-masala.** Agar argument sifatida olingan belgi o'zbek alifbosining undosh harfi bo'lsa, **TRUE** qiymatini qaytaruvchi **UNDOSH** funksiyasini yozing.

**209-masala.** Satni yuqori registrga almashtirishga qaytarishni argument sifatida hosil qiluvchi funksiya yozing.

**210-masala.** Faktorialni hisoblash funksiyasini yozing. ( $N$ -butun sonning faktoriali deb, 1dan  $n$  gacha bo'lgan sonlar ko'paytmasiga teng songa aytildi).

## Protseduralar

Bo'limi masalalarini yechishda quyidagi larni eslatamiz:

- protseduraga axborotni uzatish uchun parametrlardan foydalaniladi, ya'ni protseduradan tashqarida e'lon qilingan global bo'limgan o'zgaruvchilar;
- protsedurani chaqirish ko'rsatmasida har bir faktli parametr turi (konstanta yoki o'zgaruvchi) funksiyani e'lon qilinganda ko'rsatilgan formal parametrga mos turga to'g'ri kelishi lozim;
- agar protsedurani e'lon qilish ko'rsatmasida formal parametr oldida **VAR** so'zi mavjud bo'lmasa, protsedurani chaqirish ko'rsatmasida formal parametr sifatida mos turdag'i konstanta yoki o'zgaruvchidan foydalaniladi. Agar ko'rsatmada **VAR** so'zi qatnashsa, formal parametr sifatida faqat o'zgaruvchi olinadi;
- agar protsedura argumentini protsedurani chaqiuvchi dastur natijasiga qaytish uchun qo'llanilsa, argument nomi oldiga **VAR** so'zini qo'yish lozim.

**211-masala.** Yulduzchadan iborat satrni ekranga chiqaruvchi protsedura yozing. Satr uzunligi (yulduzchalar soni) funksiya parametri hisobianadi.

**212-masaia.** Bir xil belgilardan iborat satrni chaqirish protsedurasini yozing. Satr uzunligi va belgi protsedura parametrлari hisoblanadi.

**213-masala.** Paralleliped hajmi va sirt yuzasini hisoblash protsedurasini yozing.

## Fakultativga doir masalalar to'plami

### I. Chiqarish operatori.

Standart kutubxona **Crt** WRITE va WRITELN operatorlar yordamida chiqariladigan belgilarning rangi va son rangini berishda foydalaniladigan protseduralardan tashkil topadi. Ushbu bo'lim masalalarini yechishda quyidagi larni eslatamiz:

- dasturda protceduralar va **Crt** kutubxona funksiyasidan foydalanish huquqi dastlabki dastur ko'rsatmани **USES Crt** operatoridan boshlanadi;
- belgi rangi **TEXT Back Cround** protsedrasi bilan o'rnatiladi;
- fon rangi **Text Color** protsedurasi bilan o'rnatiladi;
- **Text Back Ground** va **Text Color** protseduralaridan foydalanishda rang nomi orqali yoki butun konstantalar bilan beriladi;
- **Ctr Scr** protsedurasi ekranni tozalaydi;
- **Ctr Scr, Text Back Ground** va **Text Color** protsedralaridan

foydalaniш uchun dastur matniga **Uses Crt** operatorini kiritish lozim.

**1-masala.** Ko'k fonda kulrang harfsda quyidagi to'rtlikni chiqarish dasturini tuzing.

Dunyoda har kimning bor o'z matlabi,  
Tuya so'rab bo'lmas echkiboqardon.  
Pismiqdan faylasuf chiqmagan kabi,  
Haqgo'y ham chiqmaydi betgachopardon.

A.Oripov

**2-masala.** "Har bir ovchi bulbullar qayerda qo'nganligini bilishni xohlaydi" matnini ckranga chiqarish dasturini tuzing. Har bir so'z biror rang bilan chiqarilsin.

Har – **qizil**, bir-yashil, ovchi – **kulrang**, bulbullar-ko'k, qayerda-sariq, qo'nganligini – **havo rang**, bilishni-qo'ng'ir, xohlaydi-**oltin rang**.

## II. Tarmoqlanuvchi dasturlar

**3-masala.** Ko'paytirish jadvali bo'yicha biliunning tekshirish dasturini tuzing. Dastur **10** ta misolni chiqarsin va quyidagi mezonda baholasin:

10 ta to'g'ri javob – "a'lo", 9 va 8 ta to'g'ri javob - "yaxshi", 7 va 6 ta to'g'ri javob – "qoniqarli", 6 va undan kam to'g'ri javobga – "yemon".

Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalananuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qaliu shrift bilan ajratilgan).

Ko'paytirish jadvali bo'yicha biliunning tekshirish.

Misoldan so'ng javobni kiritting va <Enter> tugmasini bosing.

$$5*3=15$$

$$7*7=49$$

$$1*4=4$$

$$4*3=12$$

$$9*4=36$$

$$8*8=64$$

$$7*8=56$$

Siz xato qildingiz!  $7*8=56$

$$4*7=28$$

$$3*5=15$$

$$2*5=10$$

To'g'ri javoblar: 9 ta

Baho: a'lo

**4-masala.** Sonlarni **100** chegarada qo'shish va ayirish ko'nikmasini tekshirish dasturini tuzing. Dastur **10** ta misolni chiqarsin, har bir misolda

kamayuvchi ayriluvchidan katta yoki teng bo'lishi lozim, natija manfiy bo'lmasligi lozim. Baho quyidagi qoida bo'yicha baholanadi: **10** ta to'g'ri javob - "a'lo", **9** va **8** ta to'g'ri javob - "yaxshi", **7** va **6** ta to'g'ri javob - "qoniqarli", **6** va undan kam to'g'ri javobga - "yomon".

**Sonni qo'shish va ayirish malakasini tekshirish.**

Misoldan so'ng javobni kirititing va <Enter> tugmasini bosing.

$$75-4=121$$

$$35-9=29$$

**Siz xato qildingiz!**  $35-9=26$

$$14-1=13$$

$$6-5=1$$

$$37-19=28$$

**Siz xato qildingiz!**  $37-19=18$

$$53-14=39$$

$$94-87=7$$

$$90-16=74$$

$$4-2=2$$

$$89-41=48$$

To'g'ri javoblar: **8** ta

Baho: **yaxshi**.

**5-masala.** Foydalanuvchi tomonidan ixtiyoriy tugmani bosganda yoki 3 minut davomida ihslaydigan "Elektron soal"ni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

**6-masala.** Berilgan vaqt oralig'i tugagandan so'ng, ovozli signal chiqaruvchi taymer-dastur tuzing.

**7-masala.** Klaviaturadan kiritilgan massivni to'g'ri tanlash usuli bilan kamayish bo'yicha saralovchi dastur yozing.

**8-masala.** Klaviaturadan kiritilgan massivni almashtirish usuli ("pufakcha") bilan kamayish bo'yicha saralovchi dastur yozing.

**9-masala.** O'sish bo'yicha tartiblashtirilgan ikkita massivni ozgartirmagan holda bitta massiva birlashtiruvchi dastur yozing.

**2 ta tartiblashtirilgan massivlarni o'sish bo'yicha birlashtirish.**

Bitta satrda birinchi massiv elementlarini kirititing (**5** ta butun son) →

1 3 5 7 9

Bitta satrda ikkinchi massiv elementlarini kirititing (**5** ta butun son) →

2 4 6 8 10

Natijaviy massiv: 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

Dastur ishini tugallash uchun <Enter> tugmasini bosing.

**10-masala.** Binarli izlash usulidan foydalanib, tartiblashtirilgan massivda izlashni bajaruvchi dastur tuzing.

**11-masala.** Sinfdag'i o'quvchilarning qanchaning bo'y miqdori uzunligi o'rtacha bo'ydan katta ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.

**O'quvchilar bo'yini uzunligini tahlil etish.**

Bo'y uzunligi(sm)ni kiriting va <Enter> tugmasini bosing

→175

→170

→180

→168

→170

→0

O'rtacha bo'yini uzunligi: 172.6 sm.

2 ta o'quvchining bo'yini uzunligi o'rtacha qiymatdan oshadi.

### III. Massivlar

**12-masala.** Klaviaturadan ikki o'lchanli massiv elementlarini satr bo'yicha kiritish va ularning elementlar yig'indisini ustunlar bo'yicha hisoblash dasturini tuzing.

**13-masala.** Klaviaturadan satr bo'yicha ikki o'lchanli massivni kiritish va ular elementlar yig'indisini satr bo'yicha hisoblash dasdurini tuzing.

**14-masala.** Kvadrat matritsaning diagonali elementlari yig'indisini hisoblash dasturini tuzing.

**15-masala.** Klaviaturadan ikki o'lchanli massivni satr bo'yicha kiritish va uning elementlari o'rta arifmetik qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

**16-masala.** Ikkinci tartibli kvadrat matritsaning aniqlovchisini hisoblash dasturini tuzing. Quyidagi dasturning ishlash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi tasvirlanadi (foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar yarim qalin shrift bilan ajratilgan)

2	9
7	5
6	1

Ikkinci tartibli kvadrat matrisani kiriting.

Satr elementlarini kiritigandan keyin <Enter> tugmasini bosing

→5 -7

→1 3

Matritsa aniqlovchisi

5.00 -7.00

1.00 3.00

22.00 ga teng.

**17-masala.** Klaviaturadan kiritilgan kvadrat matrisaning magik (schirli) kvadrat cketligini tekshiruvchi dastur tuzing. Matritsa elementlarining satr, ustun va diagonallar bo'yicha yig'indisi bir xil bo'lsa, bunday matritsa magik (schirli) kvadrat deyiladi. Masalan:

13	8	12	1
2	11	7	14
3	10	6	15
16	5	9	14

**18-masala.** Uchinchi tartibli kvadrat matritsa aniqlovchisini hisoblash dasturni tuzing.

**19-masala.** Olimpiada o'yinlari natijalarini yakunlovchi dastur yozing. Dasturga foydalanuvchi har bir qatnashgan komandalar to'plagan turli medallar sonini kiritishi lozim. Dastur esa umumiy medallar soni va ularga mos to'plangan ballarni hisoblash, so'ngra quyidagi qoidalar bo'yicha to'plangan ballar miqdoriga mos ro'yhatni tartiblashtirish lozim: oltin medallar uchun – 7 ball, kumush uchun – 6, bronza uchun – 5 ball oladi.

#### Olimpiada o'yinlari yakuni.

Bitta satrda oltin, kumush, bronza medallar sonini kriting.

Avstriya	→3	5	9
Germaniya	→12	9	8
Kanada	→6	5	4
Xitoy	→1	6	2
Koreya	→3	1	2
Norvegiya	→10	10	5
Rossiya	→9	6	3
AQSH	→6	3	4
Finlyandiya	→2	4	6
Yaponiya	→5	1	4
O'zbekiston	→4	3	5
Qozoqiston	→3	4	5

#### Yozgi olimpiada Seul, 2002yil.

No	Mamlakat	oltin	kumush	bronza	jam'i	To'plangan ballar
1	Germaniya	12	9	8	29	178
2	Norvegiya	10	10	5	25	155
3	Rossiya	9	6	3	18	114

4	Avtstriya	3	5	9	17	96
5	Kanada	6	5	4	15	92
6	AQSH	6	3	4	13	80
7	Finlyandiya	2	4	6	12	68
8	Yaponiya	5	1	4	10	61
9	Kitoy	1	6	2	9	46
10	Koreya	3	1	2	6	37

**20-masala.** “Sonni top” o‘yini dasturini tuzing. O‘yin qoidasi quyidagicha: 2 kislu o‘ynaydi. Bittasi sonni o‘ylaydi, ikkinchisi uni topadi. Har bir qadamda topuvchi faraz qiladi, sonni o‘ylovchi nechta raqam topilgani va bu raqamning sonda to‘g‘ri joylashganligini aytadi. Masalan, agar 725 raqami o‘ylansa va faraz qilingan son 523 bo‘lsa, 2 ta raqam topildi deb hisoblanadi va ulardan bittasi (2) to‘g‘ri joylashgan deb hisoblanadi..

Kompyuter 3 xonali sonni o‘ylaydi. Siz uni topishingiz lozim. Navbatdagi sondan so‘ng sizga xabar beriladi, nechta raqam topildi va ulardan nechtasi o‘z joyida joylashgan.

Son kiritilgandan so‘ng <ENTER> tugmasini bosing.

O‘ymai tugallash uchun<Esc> tugmasini bosing.

Sizning variantingiz	Topildi	O‘z joyida
123	0	0
456	1	0
654	2	2
657	2	2

**“Siz topdingiz !”**

Tugallash uchun <Enter> tugmasini bosing.

**21-masala.** Foydalanuvchidan xabarni oluvchi va ekranga nuqta va tire ketma-ketligida chiqaruvchi telegraf-dastur yozing. Nuqta va tire mos uzunlikdagi ovozli signal bilan chiqariladi. Rus harflari uchun Morze alifbosini quyda keltirilgan:

A . -	B - ...	V .--	G --.
D - ..	E	J ....	Z ---.
I ..	Y .---	K - . -	L . -..
M --	N - .	O ----	П .--.
R . -.	S ...	T-	U ..-
F . . .	X ....	Ц .--.	CH --.
SH -----	Ш .---.	Ҷ - . -	О‘ .--.
Б - . -	Е . . -.	ҶО .. -	Я .--.

#### **IV. Shakl yasovchi operatorlar.**

**22-masala.** Sekund va minut strelkalarga ega soatning yurishini tasvirlashni ekranda chiqaruvchi dastur yozing.

**23-masala.**  $Y=2\sin(x)e^{2^x}$  funktsya grafigini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

**24-masala.** Grafikli rejimda klaviaturadan kasr sonni kirituvchi funksiyani yozing. Foydalanuvchi tomonidan teriladigan belgilar : “minus” ishorasi, raqamlar va nuqta chiqarish nuqtasining ekranligi o‘rniga bog‘liq holda chiqarilishi lozim. Navbatdagi belgini kutish paytida ekranda cursor o‘chib-yonishi lozim. Funksiya foydalanuvchiga sodda tahrirlash-oxirgi kiritilgan belgini o‘chirish imkoniyatini ta’minlash talab etiladi(Backspace tugmasi yordamida).

#### **V.Funksiyalar**

**25-masala.** Kvadrat tenglamani yechish uchun funksiya yozing. Funksiya parametrlari koefitsientlar va tenglama ildizlari hisoblanadi. Funksiya qiymatini tenglama ildizlarining mavjudligi haqidagi axborotni dasturni chiqarishda uzatish uchun foydalanishi lozim: 2-2 ta turli ildiz, 1- bir hil ildizlar, 0- ildizga ega emas. Bundan tashqari , funksiya berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri ckanligini tekshirishirishi lozim, berilgan ma’lumotlar noto‘g‘ri bo‘lsa, funksiya – i ni qaytaradi.

**26-masala.** Klaviaturadan butun musbat ikki xonali sonni kiritishni ta’minlovchi funksiya yozing. Foydalanuvchi tomonidan biror belgiga mos tugma bosilganda bu belgi raqam bo‘lsa ekranda paydo bo‘lsin. Funksiya kiritilgan sonni <Back Space> tugmasi yordamida tahrirlash imkoniyatini bersin. Agar foydalanuvchi hech bo‘lmaganda bitta raqam kirtganda, u holda <Enter> tugmasi bosilganda funksiya ishni tugallashi va foydalanuvchi tomonidan kiritilgan son prosedurasini chaqirishga qaytarsin.

#### **VI. Protseduralar**

**27-masala.** Ekranga ramkani chiqaruvchi FRAME protsedurasini yozing. Protseduraning parametrlari sifatida ramkaning chap yuqori burchak koordinatalari va unung o‘lchamlari olinadi.

#### **VII. Fayllar**

**28-masala.** Testirlashning universal dasturini yozing.Savollar ketma-ketligi va javoblar variyanti yozilgan test matnli faylda joylashgan.Ushbu fayl nomi dastur yuklanganda buruqli satrda kiritiladi. Testning savollar miqdori chegaralannagan.Quyidagi chegaralarni kiritish talab etiladi: savol matni va alternative javoblar ekranda bittadan ortiq joyni egallashsin. Dastur quydagi qoidalar bo‘yicha baholashi lozim: a’lo-barcha savollarga to‘liq

javob berganda, **yaxshi-to‘g‘ri** javoblar miqdori **80%** bo‘lganda, **qoniqarli-to‘g‘ri** javoblar miqdori **60%** dan yuqori, **yomon-** to‘g‘ri javoblar miqdori **60%** dan kam bo‘lgan holda. Quiidagi taklif etilayatgan test savollar strukturasi fayli keltirilgan. ( $N_i$ -i-savolga alternativ javoblar soni,  $K_i$ -to‘g‘ri javob nomeri). Test fayliga misol va ekran ko‘rinishi lasturning ishlash paytida kiritiladi (javoblar nomeri foydalanuvchi tomonidan kiritilgan yarim qalin shrift bilan ajratilgan).

**Savol:**

$N_1$   $M_1$

**Javob**

.....

**Javob**

**Savol**

$N_2$   $M_2$

**Javob**

.....

**Javob**

**Savol**

$N_3$   $M_3$

**Javob**

.....

**Javob**

**Savol**

$N_k$   $M_k$

**Javob**

.....

**Javob**

**Disk yurituvchi bu-**

**4 3**

Kiritish qurilmasi;

Tashqi xotira;

Kiritish va chiqarish qurilmasi;

Chiqarish qurilmasi.

**Vinchester bu-**

**4 2**

Egiluvchan disklarda axborot saqlovchi qurilma;

Qattiq magnitli disklarda axborot saqlovchi qurilma;

Disketa;

Tog‘ri javob yo‘q.

**Axborot o‘lchovining eng kichik o‘lchovi nima?**

4 2

Bod;  
Bit;  
Bayt;  
Kilobayt.

Sizga hozir test savollari taklif etildi. Har bir savolga bir hechta savollar beriladi. Siz to‘g‘ri javob nomerini kriting va <ENTER> tugmasini bosing.

**Disk yurituvchi bu-**

4 3

Kiritish qurilmasi;  
Tashqi xotira;  
Kiritish va chiqarish qurilmasi;  
Chiqarish qurilmasi.

→ 3

**Vinchester bu-**

4 2

Egiluvchan disklarda axborot saqllovchi qurilma;  
Qaitiq magnitli disklarda axborot saqllovchi qurilma;  
Disketa;  
Tog‘ri javob yo‘q.

→ 4 2

**Axborot o‘lchovining eng kichik o‘lchovi nima?**

4 2

Bod;  
Bit;  
Bayt;  
Kilobayt.

→ 2

Sizning bahongiz “a’lo”

Dastur bilan ishni tugallash uchun <ENTER> tugmasini bosing.

**29-masala.** Foydalanuvchining hohoshiga ko‘ra, dyumdan millimetrga hisoblash jadvalini ekran, printer yoki faylga chiqaruvchi dastur yozing.

**Dyumdan millimetrga hisoblash jadvali**

Natijani chiqaradi:

1-ekranga;

2-printerga;

3-faylga;

1 dan 3 gacha sonni kriting va <ENTER> tugmasini bosing.

Sizning tanlaganingiz → 2

Dyumlar	Millimetrlar
0.5	12.7
1.0	25.4
1.5	38.1
2.0	50.8
2.5	63.5
3.0	76.2
3.5	88.9
4.0	101.6
4.5	114.3
5.0	127.0

### VIII. Rekursiya

Ushbu bo‘limning masalalarini yechish uchun quyidagi larni cslatamiz:

- O‘z-o‘zini chaqiruvchi protsedura yoki funksiya rekursiya deyiladi;
- Rekursiyali funksiya algoritmda rekursiya jarayani tugallash uchun funksiyani bacosita ta’minlovchi “shoxcha” bo‘lishi shart.

**29-masala.** Faktoriyalni hisoblashning rekursiya funksiyasini va uning ish qobiliyatini tekshiruvchi dasturni yozing.

**30-masala.** Quyida keltirilgan naqshni ekranga chiqarish dasturini yozing.

**31-masala.** Sxemasi quyidagi keltirilgan elektr zanjir qarshiligini hisoblash dasturini yozing. Qarshilik kattaligi va zanjir tartibi ( $R_{\text{q}}$ ) qarshilik miqdori) dasturning ishlash paytida kiritikishi lozim.

**32-masala.** Quyidagi keltirilgan elektr zanjir sxemasini ekranda chisuvchu dastur tuzing.

**33-masala.** Quyidagi keltirilgan Gilbert egri chizig‘ini ekranda chizish dasturini yozing. Ikkinchisi tartibli egri chiziq to‘rtta birinchi tartibli egri chiziqni birlashtirish yo‘li bilan tashkil etiladi, ulardan ikkitasi  $90^{\circ}$  ga buriladi; bittasi soat strelkasi bo‘yicha, boshqasi teskarli. Shunday usul bilan uchinchi tartibli egri chiziq hosil qilinadi, lekin g‘ishtchalar sifatida ikkinchi tartibli egri chiziqdan foydalilaniladi. Egri chiziqni chizish tartibi dastur bilan ishlash paytida kiritiladi.

**34-masala.** Serpin egri chizig‘ini chizuvchi dastur tuzing. Egri chiziq tartibi dastur bilan ishlash vaqtida beriladi. Serpin egri chizig‘ining birinchi, ikkinchi va uchinchi tartibli ko‘rinishi quyidagicha keltirilgan:

## II BOB. YECHILISHI

### 1- masala

```
x: real; {funksiya o'zgaruvchisi qiymati }  
y: real ; {funksiya o'zgaruvchisi qiymati}
```

### 2- masala

```
funt: real; { sunt og'irligida }  
kg: real; { kilogram ogirligida }
```

### 5- masala

```
r1: real; { halqa diametri }  
r2: real; { teshik diametri }  
s: real; { halqa yuzasi }
```

### 7- masala

```
CenaTctr: real; {daftarning narxi }  
KolTetr: integer; { daftarlarning hajmi }  
CenaKar: real; { qalamning narxi }  
KolKar: integer; { qalamlarninghajmi }  
CenaLin: real; { chizg'ichning narxi }  
Summa: real; { xarid narxi }
```

### 11- masala

```
n:=n+1;
```

### 14- masala

```
y:=-2.7*x*x*x+0.23*x*x-1.4;
```

### 16-masala

```
kg:=gunt*0.4095;
```

### 34-masala

```
sum:=ct*nt+ck*nk+cl;{ct,ck —daftarning narxi, qalam va chizg'ich} {  
nt, nk —daftar va qalamlarning hajmi}
```

### 38-masala

```
begin
```

```
writeln(Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig' );
```

```
writeln(Yor o'ling bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.);
```

```
writeln;
```

```
writeln(' Alisher Navoiy);
```

```
readln; { she'r ekranidan yo'q bo'lib ketmasligi uchun }
```

**end.**

### **42-masala**

```
writeln(a:6:2);  
writeln(b:6:2);  
writeln(c:6:2);
```

### **43-masala**

```
writeln('x1=\$x1:6:2, 'x2='\$x2:6:2);
```

### **44-masala**

```
uses Crt; begin
```

```
TextBackGround(Blue); { foning rangi }
```

```
TextColor(LightGray); { belgilarning rangi }
```

```
ClrScr; { ekranni tozalash }
```

```
writeln('Do'stlar, mening yurtimni');
```

```
writeln('O'zbekiston deydilar.');
```

```
writeln('Dong'i tutgan dunyoni');
```

```
writeln('Bog'u bo'ston deydilar.');
```

```
writeln;
```

```
writeln(' Zafar Diyor');
```

```
readln; { she'mung ekrandan yo'q bo'lib ketmasligi uchun }
```

**end.**

### **45-masala**

```
Uses Crt;
```

**begin**

```
TextBackGround(Black); ClrScr;
```

```
TextColor(Red); write('har biri');
```

```
TextColor(LightRed); { sabzirangni och-qizilga almashtiraniz}
```

```
write(' ovchi');
```

```
TextColor(Yellow);
```

```
write('hoxlaydi');
```

```
TextColor(Green);
```

```
write('bilish');
```

```
TextColor(LightBlue);
```

```
write('qaerda');
```

```
TextColor(Blue);
```

```
write('joylashgan');
```

```
TextColor(Magenta);
```

```
write('fazan.');
```

```
readln; { ibora ekrandan yo'q bo'lib ketmasligi uchun }
```

**end.**

### **47-masala**

```
readln(u);
readln(r);
```

### **48-masala**

```
readln(u,r);
```

### **49-masala**

```
( o'zgaruvchilarni e'lon qilish )
r, h : real; {silindr radiusi va balandligi}
v: real; { silindr hajmi }
{ dastur qismi }
writeln('boshlang'ich ma'lumotlarni kriting:');
write('silindr radiusi —>');
readln ( r );
writeln('silindr balandligi —>');
readin(h);
```

### **51-masala**

```
{ Paralellogramm hajmini hisoblash }
var
    l,w: real; { paralellogramm uzunligi va kengligi }
    s: real; { paralellogramm yuzasi }
begin
    writeln(' paralellogramm yuzasini hisoblash');
    writeln('boshlang'ich ma'lumotlarni kriting:');
    write('uzunligi (sm.) —>');
    readln(l);
    write('kengligi (sm.) —>');
    readln(w);
    s:=l*w;
    writeln (' paralellogrammi yuzi: ', s : 6:2, ' kb.cm. ');
    readln;
end.
```

### 53-masala

{parallelepiped sirt yuzasini hisoblash}

**var**

l,w,h: real; {parallelepipedning uzunligi, kengligi va balandligi}  
s: real; { parallelepiped sirt yuzasini}

**begin**

writeln('parallelepiped sirt yuzasini hisoblash');  
writeln('boshlang`ich ma'lumotlarni kirititing:');  
write ('uzunligi (sm) —>') ;  
readln (l);  
write ('kengligi (sm) —>') ;  
readln (w);  
s:=(l\*w=l\*h+w+h)\*2;  
writeln(' parallelepiped sirt yuzasi:',s:6:2, ' kb.cm. ') ;  
readln;

**end.**

### 55-masala

{ Silindr hajmini hisoblash }

**var**

r,h,v: real; { asos radiusi, silindr balandligi va hajmi }

**begin**

writeln(' Silindr hajmini hisoblash ');  
writeln('boshlang`ich ma'lumotlarni kirititing:');  
write ('asos radiusi (sm) —> ');\nreadln(r);  
write('silindr balandligi (sm) —> ');\nreadln (h);  
v := 2\*3.1415926\*r\*r\*h;  
writeln('Silindr hajmi ',v:6:2,' sm.kub.');

writeln('dastur ishini tugatish uchun <Enter> tugmasini bosing');

readln;

**end.**

### 56-masala

{ Harid qilinganlar narhini hisoblash }

**var**

qal,dast: real; { qalam va daftar narhi }

nq,nd: integer; { daftar va qalamlar soni }

summ: real; { harid qiymati }

**begin**

writeln(' Harid qilinganlar narhini hisoblash');

```

writeln('Boshlang`ich ma'lumotlarni kriting:');
write ('Daftар narhi (so`m) —>');
readln(daft);
write('daftарlar soni —>');
readln(nd);
write('Qalam narhi (so`m) —>');
readln(qal);
write('qalamlar soni —>');
readln(nq);
summ:=daft*nd + qal*nq; writeln;
writeln(Harid qiymati:',summ:6:2,' so`m');
readln;
end.

```

### 60-masala

{ Uchburchak yuzini berilgan ikki tomon va ular orasidagi burchak orqali topish }

**var**

```

a,b: real; { tomonlar uzunligi }
f: real; { burchak kattaligi, gradusdagи qiymati }.
s: real; { uchburchak yuzasi }

```

**begin**

```

writeln('Uchburchak yuzasini hisoblash');
writeln('Uchburchak tomonlari uzunligini bir qatorda kriting'),
write('>');

```

readln(a,b);

writeln('Uchburchak tomonlari orasidagi burchakni kriting');

write('>');

readln(f);

{ s=a\*h/2

h (uchburchak balandligi) quyidagi

formula yordamida aniqlanishi mumkin:

h=b\*sin(f).

Ammo, Turbo Pascal da Sin funksiya argumenti radianlarda ko`rsatilishi kerak (1 rad. = 180/3.1415925,

bu yerda 3.1415926 - "Pi" soni).}

s:=a\*b\*sin(f\*3.1415926/180)/2;

writeln;

writeln('uchburchak yuzi:',s: 6:2, ' kv.sm.');

readln;

end.

### 61-masala

{ Ikki parallel ulangan elementdan tashkil topgan elektr zanjir qarshiligini hisoblash. }

**var**

r1,r2: real; (zanjir elementlarning qarshiligi)

